

О‘ЗBEKISTONDA REAL IQTISODIYOT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BORASIDA ERISHILGAN NATIJALAR

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Real iqtisodiyot kafedراسи professorи,
i.f.d. Kuvandikov Shukhrat Oblokulovich
MI -121 gurux magistri
Xolmirzaeva Gulrux Akbarovna*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Real iqtisodiyot korxonalarida biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to‘planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to‘la namoyon etish choralarini ko‘rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo‘lmog‘i lozim”, deb ta’kidlab, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g‘oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e’tirof etadi.

Bugungi kunda real iqtisodiyot korxonalarini ishlab chiqarishning holati, milliy iqtisodiyot korxonalarining asosiy vositalarining holati va texnik jihozlanish darajasi, iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish imkoniyati va ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish investitsiya siyosatining samaradorligiga bog‘liq.

Investitsiyalar real iqtisodiyot korxonalarini, alohida tarmoqlarni va umuman iqtisodiyotni rivojlantirish uchun asosdir, chunki hozirgi vaqtda milliy iqtisodiyotning texnik va texnologik darajasi past, ishlab chiqarish va sanoat tarkibi noaniq, asosiy vositalar va ishlab chiqarish quvvati eskirgan bir vaqtda korxonalar uchun zamon talablari darajasiga moslashish

uchun kerak resurslarni ta’minlaydi. Chet ellik sarmoyadorlar, xorijiy kreditorlardan farqli ravishda o‘zlarining investitsiyalariga qo‘shimcha ravishda mamlakatga sivilizatsiyalashgan bozor elementlarini: yuqori sifatli menejment, boshqaruv tajribasi, marketing, innovatsion resurslar, axborot texnologiyalari, xalqaro hamkorlik standartlari, ular o‘rnatgan aloqalar va savdo yo‘nalishlari orqali jahon

bozoriga chiqish imkoniyatlarini olib kelmoqdalar. Jahon amaliyotida, iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya jalb qilish samaradorligi borasida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlarda xalqaro moliya bozorlariga kuchli integratsiyalashuvni taminlash orqali xorijiy investitsion banklar va fondlar bilan investitsiyaviy yo'nalishda hamkorlikni rivojlantirish, hamda, xorijiy kreditlar va investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish muammolari va afzalliklari belgilab berilgan.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llarini shakllantirish doirasidagi qator tadqiqot izlanishlari xorijlik iqtisodchi olimlardan C.Liesbeth, M.Miet, S.Jo ilmiy izlanishlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilar fikricha, o'tish davri mamlakatlarida iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizmini takomillashtirishning muhim omili hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri kapitalni to'plash va texnologik nou-xau orqali milliy korxonalariga texnologiyalar va bilimlarni jalb qilinishi iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlaydi.

M.V.CHaraeva ilmiy tadqiqotlarida tashkilotlarning real sarmoyalarini moliyaviy boshqarish jarayonlarining konseptual asoslari o'rganilgan. Innovatsion yo'naltirilgan iqtisodiyot sharoitida real sarmoyalarni strategik moliyaviy boshqarish xususiyatlari bayon etilgan.

D.SH.Bababekova, B.O.Tursunov tadqiqotlarida faol investitsion jarayonlarni raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishdagi o'rni, faol investitsiyalar orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni shallantirishning xorij tajribasi va undan samarali foydalanish imkoniyatlari o'rganiladi.

F.U.Umarov tadqiqotlarida iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalariga investitsiya jalb qilish ko'lamini kengaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

Xamidulin M.B. ilmiy tadqiqotlarida O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan investitsiyalar samaradorligi tahlillari asosida mamlakat real iqtisodiyot korxonalari iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonini moliyalashtirish xususiyatlari bayon qilingan.

S.E.Elmirzaev tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda aksiyadorlik kapitaliga xorijiy investitsiyalarni jalb samaradorligi, aksiyalarni xalqaro bozorlarga chiqarish orqali kapital jalb qilish yo'nalishlari bayon etilgan. Foiz to'lovlaridan qutulish korxonaning qisqa muddatli likvidlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga sabab bo'lar edi. Bu esa rentabellik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Darhaqiqat, sotish rentabelligining qisqa muddatli likvidlik koeffitsientiga bog'lanishini tadqiq qilganimizda ular orasida korrelyasiya darajasi 0,9276 ekanligi topildi. Umuman olganda muallif fikricha, korxonani boshqaruv

tizimida, xususan moliyaviy va investitsion menejment sohasida jiddiy muammolar mavjud. Kimyo sanoati korxonalaridan biri bo'lgan «Maksam-Chirchik» AJning aksiyalarini xorijiy investitsiya jadb qilinishi evaziga korxonaning boshqaruv faoliyatidagi va iqtisodiy ko'rsatkichlarida katta o'zgarishlar ro'y berdi.

2007 yilda Chirchiq shahridagi «Elektrkimesanoat» AJ aksiyalarining 49% Ispaniyaning «Maxam Corp, International S.L» kompaniyasiga investitsiya kiritish sharti bilan sotildi va jamiyat nomi «Maksam-Chirchik» AJga o'zgartirilgan edi. Shundan so'ng Kimyo sanoati korxonalarining 2007-2011 yillar davrida modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturiga binoan uchta yirik loyiha amalga oshirildi. «MaxamCorp, International S.L» kompaniyasi tomonidan «Maksam-Chirchiq» AJda faqatgina ishlab chiqarish jarayoni uskunlari modernizatsiya va rekonstruksiya qilinib qolmasdan korxonaning boshqaruv jarayoni ham o'zgartirildi vakorxonaga korporativ boshqaruv joriy qilindi bu esa o'z navbatida o'zining samarasini berdi buni korxonaning so'ngi yillardagi faoliyatining samardorligining oshishida ham ko'rishimiz mumkin.

Korxonalarining moliyaviy barqarorligini aniqlash va boshqarishni baholash uchun taxlil usullaridan tashqari, fan va amaliyotda maxsus vositalar, ya'ni iqtisodiy ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan. Bundan ko'zlangan maqsad korxonadagi iqtisodiy isloxotlar moxiyatini aniqlash va baxolashdan iborat. Real iqtisodiyot Sanoat korxonalarini ko'plab kichik tizimlardan tarkib toptan murakkab tizimni o'zida namoyon etadi, shuning uchun ham ularning barqarorligini baxolash yondashuvning umumiyliigi, ya'ni moliyaviy barqarorlik ko'satkichlarining tizimi bilan tavsiflanishi lozim.

Bugungi kunda ushbu ko'rsatkichlarning xilma-xilligi amalga oshirilayotgan taxlilni, ma'lum darajada, qiyinlashtiradi. Ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha natijalarni birlashtirishning murakkabligi esa korxonalarining moliyaviy barqarorligi to'g'risidagi xulosa chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Korxonalarining moliyaviy barqarorligini baxolash ko'rsatkichlari tarkibi turli xil bo'lib, ular xam mutlaq, xam nisbiy ko'rsatkichlardan iborat. Korxonalarining moliyaviy barqarorligini taxlil qilishda mutlaq ko'rsatkichlardan foydalanish katta axamiyatga ega. Ularning tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin: korxonaning o'z va qarz mablag'lari, aktivlar va pul mablag'lari, debitorlik va kreditorlik qarzlari, foyda miqdori, shuningdek, sof aktivlar, korxonaning o'z aylanma mablag'lari, zaxiralarning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi (ko'rsatkichlari), barqaror passivlar miqdori kabi xisobotlar asosida xisob-kitob qilinadigan ko'rsatkichlar.

Ushbu ko'rsatkichlar yordamida korxonaning moliyaviy xolati sifatini aniqlash imkonini beruvchi mezonlar shakllanadi. Bir vaqtning o'zida, korxonalarining moliyaviy barqarorligini taxlil qilishda nisbiy ko'rsatkichlar xam muxim rol uynaydi. Chunki, ular inflyasiyaning xisobot ma'lumotlariga salbiy ta'sirini kamaytiradi.

Korxonalar moliyaviy barqarorligini taxlil qilish uchun ko'rsatgichlarni tanlash oldinga qo'yilgan vazifalarni xal etish, ya'ni buxgalteriya xisobotlari asosida uning moliyaviy barqarorligini baxolashga ko'maklashishi lozim. Ma'lumki, moliyaviy barqarorlikni baxolashning umumiy qabul qilingan yagona me'zonlari hozircha mavjud emas. Bundan tashqari, bir xil iqtisodiy mazmundagi koeffitsientlar turli xil nomlarda ishlatiladi.

Bu esa, o'z navbatida, atamashunoslikni tartibga keltirish masalasini dolzarb qilib quyadi. Masalan, moliyaviy manbalarning umumiy darajasida o'z manbalarining ulushini tavsiflovchi ko'rsatgich turlicha nomlanadi. Korxonalarining moliyaviy barqarorligiga nisbatan mavjud qarashlar va uni tavsiflovchi ko'satkichlar nuqtai-nazaridan taxlil qilgan xolda ikkita yondashuvni ajratish mumkin.

Birinchi yondashuv sobiq Ittifoq davlatlari iqtisodiyotida yuzaga kelgan bo'lib, unda korxonaning tulov qobiliyati va uning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi, moliyaviy barqarorlikning asosiy mezoni sifatida qaraladi. Biroq, ushbu ko'rsatgichlar korxonaning moliyaviy xolatini to'liq tavsiflay olmaydi, chunki ma'lum sanaga - davr boshi va yakuniga ko'ra balans bo'yicha xisoblab chiqiladi va shuning uchun ushbu vaqt mobaynida katta uzgarishlarga duch kelishi mumkin.

Moliyaviy barqarorlikka nisbatan MDX, davlatlari iqtisodchilarining bunday qarashi, bizningcha, tugri xisoblanadi. Chunki uzoq vaqt mobaynida sobiq Ittifoq davrida qurilgan korxonalar davlat tomonidan rasman yaratilgan barqaror sharoitda faoliyat yuritgan va uzoq muddatli rejada ularga bankrotlik taxdidi solinmagan. Ikkinchi yondashuv G'apb iqtisodiy amaliyotida rivojlangan bo'lib, bunda korxonaning qarz va o'z mablag'larining nisbati bilan bog'lik; (kreditorlardan) moliyaviy mustaqilligi, uning moliyaviy barqarorligining asosiy mezoni xisoblandi. Ushbu nuqtai-nazar ham bir tomonlama xususiyatga ega, chunki korxonaning moliyaviy xolatini va uni rivojlantirish istiqbollari to'liq xisobga olmaydi. O'zbekistondagi sanoat korxonalarining hozirgi xo'jalik yuritish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, xatto aktivlar tarkibida qarz mablag'lariga ega bo'lmagan xolda, ya'ni moliyaviy barqarorlikning ijobiy ko'rsatgichlariga ega bo'lgan xolda ham og'ir moliyaviy xolatga tushib qolishi mumkin.

Bugungi kunda xorijiy davlatlar iqtisodchilarining qarashlari O'zbekiston olimlari nuqtai-nazarlarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda, ular xam moliyaviy barqarorlikni korxonaning qarz va o'z mablag'larining nisbatidan kelib chiqqan xolda tadqiqotlar olib borishmoqda. O'zbekistonning zamonaviy iqtisodiy adabiyotida moliyaviy barqarorlikka nisbatan xam birinchi, xam ikkinchi yondashuvlar nuqtai-nazarlarni aks ettiruvchi g'oyalar uchramoqda.

Korxonalar moliyaviy xolatini taxlil qilishda iqtisodchi olim, professor E.A.Akramov moliyaviy mustaxkamlik tushunchasi va uning ko'rsatgichlarini tavsiya etgan va unga ta'sir etuvchi omillarni asoslab bergan. Shuningdek, u moliyaviy

barqarorlik toifasi korxonaning moliyaviy xolatini zaruriy bir xil darajada turishi va pasaymasligini ifodalovchi ko'satkich ekanligini ta'kidlaydi. Biroq, zamonaviy iqtisodiy lug'atlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda mustaxkamlik - barqaror, birdek turish, bir darajada turish va o'zgarish kabi ma'nolarni beradi. Demak, bu ikki xolatda xam «barqarorlik» va «mustaxkamlik» toifalarning uyg'unligini ko'rish mumkin. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, «mustaxkamlik»ga «barqarorlik» toifasining tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin.

Ushbu toifalarni korxonaga moliyaviy xolatiga bog'lagan xolda quyidagi talqin yuzaga keladi. Ya'ni, moliyaviy barqarorlik - aktivlarning etarli likvidligi, zarur zaxiralarning mavjudligi va moliya muvozanatini asoslovchi moliyaviy xolat mustaxkamligidir. Shu o'rinda, mustaxkamlik - daromad xamda xarajatlarning mos kelishi, etarli daromad xisobiga davlat, boshqa tashkilotlar va ishchilar oldidagi barcha majburiyatlarni normal shartlarda bajarilishini ta'minlash imkonini beruvchi korxonaning moliyaviy xolati, xo'jalik faoliyatidir.

Iqtisodchi olim, professor T.S. Malikovning fikriga ko'ra, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy barqarorligini umumiy (avtonomiya koeffitsienti, qarz kapitalining konsentratsiyalashuvi koeffitsienti, qarz va o'z mablag'larining nisbata koeffitsienti) va nisbiy ko'rsatkichlar (zaxira va xarajatlarning o'z kapitali bilan ta'minlanganlik koeffitsienti, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, o'z kapitalining manyovrlilik koeffitsienti) xarakterlaydi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mardiyevna, S. G., & Farxodovna, M. R. (2023). Small Service Business Trends. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 2(5), 123-130.
2. Mardiyevna, S. G., & Ugli, Y. S. N. (2023). Development of Entrepreneurship Organizing Enterprise Activity Through. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 564-571.
3. Mardiyevna, S. G., & Panjiyevich, K. S. (2023). Economic Fundamentals of the Development of Services. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 600-607.
4. Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 169-179.
5. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАХКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
6. Shadiyeva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.
7. Shadiyeva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
8. Shadiyeva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
9. Shadiyeva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.

10. Shadieva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. *British View*, 7(4).
11. Nodirovna, M. S. (2023). Developing Rural Services and Increasing the Living Standards of the Population in the Republic of Uzbekistan. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 653-661.
12. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
13. Abdukhalilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
14. Abdukhalilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
15. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
16. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
17. Mardievna, S. G., & Shukhatovna, M. S. (2021). Ways to increase investment potential in samarkand region. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(11), 44-50.
18. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. *Экономика и образование*, (1), 121-126.
19. Мамаюнус, П., & Мардиевна, Қ. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида қўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. *Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector*, 278.
20. Shadieva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.
21. Shadiyeva, G., & Kholmiraeva, G. (2022). FAMILY BUSINESS AND ITS DEVELOPMENT. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 148-151.
22. Shadieva, G., & Saidmurodov, F. (2022). DEVELOPMENT OF NATIONAL TOURISM AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF ITS COMPETITIVENESS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 115-124.
23. Шадиева, Г. М., & Кувандикова, Ш. О. (2022). РОЛЬ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 59-63.
24. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 712-721.
25. Пардаев, М. Қ., & Шодиева, Г. М. (2001). Оила хўжалиги иқтисодиёти ва тадбиркорлиги. Самарқанд, СамКИ, 151.
26. Shadieva, G. M. (2022). SOCIO-ECONOMIC CONCEPT OF " FAMILY ECONOMY". *Confrencea*, 1(1), 239-243.
27. Шадиева, Г. М., & Садинова, Б. Б. (2022). Мамлакатимизда тадбиркорликни ривожлантириш йўллари.
28. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). SYNERGETICS AND ITS ROLE IN SOLVING PROBLEMS OF FAMILY BUSINESS. *British View*, 8(1).
29. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
30. Шадиева, Г., & Шакирова, Ф. (2021). ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШГА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛКНИ

- РАСМИЙЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. Экономика и образование, (5), 381-384.
31. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
 32. Шадиева, Г. М. (2022). ОИЛА ХЎЖАЛИГИ ФАРОВОНЛИГИНИ ОШИРИШДА ОИЛАВИЙ БИЗНЕСНИНГ РОЛИ. *Архив научных исследований*, 2(1).
 33. Shadieva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. *British View*, 7(4).
 34. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. *Экономика и образование*, (1), 121-126.
 35. Shadieva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.
 36. Mardiyevna, S. G., & Ugli, A. U. A. (2023). PROVIDING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN RURAL AREAS IN THE DIGITAL ECONOMY. *Research Focus*, 2(1), 7-10.
 37. Pardaeva, O. M., & Shodieva, G. M. (2020). The role of family entrepreneurs in society development. *American Journal of Economics and Business Management*, 3(5), 194-200.
 38. Шадиева, Г. (2021). ОИЛА ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ. *Экономика и образование*, (1), 121-126.
 39. Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 169-179.
 40. Мамаюнус, П., & Мардиевна, Қ. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида қўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. *Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector*, 278.